



ARAB YOZUVI – TIRIK MEROS

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
INGLIZ FILOLOGIYASI, O'QITISH METODIKASI
VA TARJIMASHUNOSLIK FAKULTETI
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: XITOY TILI
1- BOSQICH TALABASI
IBROXIMOVA MADINAXON ABDUVOXOB QIZI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola arab yozuvining tarixiy, madaniy va ilmiy ahamiyatini o'rganishga asoslangan. Arab yozuvi o'zbek xalqining madaniy merosida qanday muhim o'ringa ega ekanligi, tilshunoslik tarixida esa eng zarur manbalarning mavjudligi hamda bugungi kunda tirik meros sifatida saqlanishi tahlil qilindi. Tadqiqotda tarixiy qo'lyozmalar, klassik adabiyot asarlari va arab yozuvidagi lingvistik xususiyatlar manba sifatida ko'rib chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR: *Arab yozuvi, tirik meros, tilshunoslik, qo'lyozma, o'zbek tili, kaligafiya, madaniy meros*

ANNOTATION: This article is devoted to the study of the historical, cultural and scientific significance of Arabic script. This role of Arabic script in the cultural heritage of the Uzbek people, its value as a source in linguistics and its preservation as a living heritage today is analyzed. The study considered historical manuscripts, classical literary works and linguistic features of Arabic script as the main sources.

KEYWORDS: *Arabic script, living heritage, linguistics, manuscript, Uzbek language, calligraphy, cultural heritage*



АННОТАЦИЯ: Статья посвящена изучению историко-культурного и научного значения арабской письменности. Анализируется роль арабской письменности в культурном наследии узбекского народа и её значение как живого наследия в наши дни. В качестве основных источников исследования рассматриваются исторические литературные произведения и лингвистические особенности арабской письменности.

Ключевые слова: *Арабская письменность, живое наследие, лингвистика, рукопись, узбекский язык, каллиграфия, культурное наследие*

Arab yozuvi jahon sivilizatsiyasida eng qadimiy, tarixi boy va keng tarqalgan yozuv tizimlaridan biridir. Uning shakllanishi, taraqqiyoti, madaniyat va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi nihoyatda katta. O'zbek xalqi tarixi ham arab yozuvi bilan bevosita bog'liq. Chunki asrlar davomida Markaziy Osiyo hududida ilm-fan, adabiyot, davlat boshqaruvi, savdo, diplomatiya va diniy hayotning asosiy yozuv tizimi aynan shu grafikaga tayanib rivoj topgan. Arab yozuvi orqali yozilgan nodir qo'lyozmalar, tarixiy manbalar, badiiy asarlar va ilmiy risolalar bugungi kunda madaniy merosimizning eng bebaho qatlami hisoblanadi. Bu yozuv nafaqat milliy xotira, balki tirik meros sifatida ham ahamiyatga ega. Chunki arab yozuvi hozir ham diniy adabiyotlarda, ilmiy tadqiqotlarda, kaligrafiya san'atida, universitetlarda, ilmiy institutlarda va madaniy markazlarda o'rganilmoqda.

Arab yozuvi eramizning V–VI asrlarida Arabiston yarimorolida shakllangan. Uning ildizlari qadimgi nabatiy va oromiy yozuvlariga borib taqaladi. Dastlab arab qabilalari bu yozuvdan hujjatlar va qisqa matnlar yozishda foydalangan. Islom dini tarqalishi bilan arab yozuvi ham tez sur'atlarda butun Yaqin Sharqda, Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo va hatto Ispaniyagacha tarqaldi. VIII–X asrlarda arab yozuvi Sharq uyg'onishi davrida ilm-fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning asosiy vositasiga aylandi. Matematika, astronomiya, anatomiyadan tortib geodeziya, tibbiyot, filologiyaga qadar minglab ilmiy risolalar arab yozuvida



yaratildi. Bu asarlar keyinchalik yevropalik olimlar tomonidan lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa uygʻonishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Arab yozuvi bu davrda faqat grafik tizim boʻlib qolmay, balki madaniy-estetik hodisaga aylandi. Xattotlik sanʼati rivojlandi, kufiy, naskh, suls, diwaniy kabi koʻplab yozuv uslublari paydo boʻldi. Har biri oʻziga xos shakl, bezak va qoida asosida rivoj topdi. Arab yozuvi Markaziy Osiyoga VIII asrda kirib kelgan. Bu davrda Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatida arab tili ilm-fan va din tili boʻlib xizmat qilgan. Shu sababli arab yozuvi keng qoʻllanilgan. Keyinchalik turkiy tillardagi adabiy asarlar ham arab yozuvida yaratilgan. Qutadgʻu bilig, Devonu lugʻatit turk, Mahmud Qoshgʻariy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlar asarlarining barchasi arab grafikasi asosida yozilgan. Oʻrta asrlar davomida oʻzbek davlatlarida arab yozuvi: davlat hujjatlari, diplomatik maktublar, tarixiy solnomalar, diniy kitoblar, ilmiy risolalar, badiiy asarlar, tibbiyot, huquq, falsafa va matematika qoʻlyozmalarida asosiy yozuv tizimi sifatida qoʻllanilgan. Demak, arab yozuvi asrlar davomida oʻzbek madaniyatining barcha sohalari bilan bevosita bogʻlangan. Arab grafikasi oʻzbek tilining rivojlanishida juda katta iz qoldirgan. Asosan uch muhim yoʻnalishda: Eski oʻzbek tilida yaratilgan barcha klassik asarlar arab cyozuvida yozilgan. Masalan: Alisher Navoiy “Xamsa”si, Boburning “Boburnoma”si, Ogahiy, Munis, Mashrab, Nodira asarlari, Xorazm, Buxoro, Qoʻqon tarixiga oid xronikalar, Qadimiy diniy risolalar. Bu qoʻlyozmalar orqali oʻzbek tilining tarixiy qatlamlari, soʻz boyligi, grammatik qoidalari haqida qimmatli maʼlumot olamiz. Arab yozuvi orqali oʻzbek tiliga juda koʻp ilmiy va ijtimoiy soʻzlar kirgan: ilm, maʼrifat, madaniyat, saboq, taʼlim, jamiyat, adabiyot, tarix, hikmat, maqsad, sabab... Bu soʻzlar bugungi oʻzbek tilida ham faol qoʻllaniladi. Arab yozuvi asosida shakllangan xattotlik sanʼati oʻzbek xalqining estetik didini shakllantirdi. Koʻplab meʼmoriy yodgorliklar — masjidlar, madrasalar, maqbaralar, ustunlar, devorlar arab yozuvi bilan bezatilgan. Bu naqshlar bugun ham yuksak madaniy merosdir. Bugungi kunda koʻplab yoshlar arab



kaligrafiyasiga qiziqmoqda. Arab yozuvi asosida logotiplar, bezaklar, qaligrafik rasmlar yaratilmoqda. O'zbekistonda arab tilini o'rgatuvchi markazlar ko'paymoqda. Bu arab yozuvining amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, arab yozuvi o'zbek xalqi tarixida til, madaniyat va ma'naviyatning asosiy ramzlaridan biri bo'lib qolgan. U asrlar davomida ilmiy meros yaratilishiga xizmat qilgan, o'zbek adabiyoti va davlat boshqaruvi tizimining muhim elementi bo'lgan. Bugungi kunda arab yozuvi tirik meros sifatida nafaqat tarixiy qo'lyozmalarda, balki tilshunoslik tadqiqotlarida, kaligrafiya san'atida va madaniy-ma'rifiy faoliyatlarda o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Arab yozuvini o'rganish — milliy merosni asrash, o'zbek tili tarixini chuqur anglash va ilmiy izlanishlarga yangi manbalar ochishning muhim yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musayev A. O'zbek yozuvi tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Rasulov R. Eski o'zbek tili va yozuvi. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
3. Karimov B. O'zbek qo'lyozmalarining lingvistik tahlili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Alpatov V. Istoriya arabskoy pis'mennosti. – Moskva: Nauka, 2001.
5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qo'lyozmalar instituti materiallari.